

ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY MEHANIZMLAR

Levakov Izzatulla Nematillayevich

*i.f.f.d, dots, University of Business and
Sciense, “Menejment” kafedrası mudiri
izzatillalevakov@gmail.com*

+99888-441-05-09

Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi

*University of Business and Sciense magistranti
mirzarayimovaferuza887@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning mohiyati, uning iqtisodiy mazmuni va korxona samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi va uni baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimi batafsil tahlil qilinadi. Maqolada xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning diversifikatsiya bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari tahlil qilinib, ularning nazariy qarashlari umumlashtiriladi. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida diversifikatsiya strategiyasining korxona faoliyatiga ijobiy va salbiy ta'sir jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning amaliy ahamiyati ham yoritib berilgan

Kalit so'zlar: diversifikatsiya, iqtisodiy mexanizm, investitsiya, innovatsiya, marketing, moliyaviy siyosat, ishlab chiqarish barqarorligi.

I. KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, bozor kon'yunkturasining tez-tez o'zgarib turishi, resurslar cheklanganligi hamda raqobat muhitining keskinlashuvi sharoitida korxonalar an'anaviy ishlab chiqarish faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, o'z strategiyalarini takomillashtirib borishga majbur bo'lmoqda. Ana shunday sharoitda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish korxonalar samaradorligini oshirishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish mohiyatan korxona faoliyatini bir yoqlama yo'nalishdan ko'p tarmoqli faoliyatga o'tkazish, mahsulot va xizmatlar assortimentini kengaytirish, yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish orqali iqtisodiy xavflarni kamaytirishga qaratilgan strategiyadir. Diversifikatsiya korxonalarga bozor talabidagi keskin o'zgarishlarga

moslashish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda daromad manbalarini ko‘paytirish imkonini beradi. Shu sababli diversifikatsiya bugungi kunda nafaqat yirik sanoat korxonalari, balki kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatida ham keng qo‘llanilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, I. Ansoff diversifikatsiyani korxonaning o‘zlash strategiyalaridan biri sifatida baholab, uni yangi mahsulotlar va yangi bozorlarni o‘zlashtirish orqali rivojlanishni ta‘minlovchi muhim vosita deb hisoblaydi. M. Porter esa diversifikatsiyani raqobat ustunligini shakllantirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashning samarali mexanizmi sifatida talqin qiladi. Ushbu nazariy yondashuvlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali korxona samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi esa korxona faoliyatining asosiy natijaviy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonida sarflangan resurslar bilan erishilgan iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi nisbat orqali ifodalanadi. Samaradorlikning oshishi mehnat unumdorligining ortishi, mahsulot tannarxining pasayishi, foydaning ko‘payishi va korxonaning umumiy raqobatbardoshligining kuchayishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, diversifikatsiya strategiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ham ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar diversifikatsiya strategiyasining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali hududlar iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush darajasini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida diversifikatsiyaning mohiyati va turlari, ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, shuningdek, diversifikatsiya orqali samaradorlikni oshirish mexanizmlari yoritib beriladi. Shuningdek, amaliy tahlil asosida diversifikatsiya strategiyasining korxona faoliyatiga ta‘siri baholanadi va tegishli xulosa hamda takliflar ishlab chiqiladi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish masalasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda korxonalar strategik rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Diversifikatsiya tushunchasi dastlab korxonalar faoliyatini kengaytirish va risklarni kamaytirish bilan bog‘liq strategik qarorlar kontekstida shakllangan bo‘lib, keyinchalik uning samaradorlikka ta‘siri iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o‘rganila boshlagan. Mazkur bo‘limda diversifikatsiya va ishlab

chiqarish samaradorligi masalalariga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda diversifikatsiya strategiyasining nazariy asoslarini shakllantirishda I. Ansoffning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, diversifikatsiya korxonaning o‘sish strategiyalaridan biri bo‘lib, mavjud mahsulot va bozor imkoniyatlari cheklangan sharoitda yangi mahsulotlar va yangi bozorlarni o‘zlashtirish orqali rivojlanishni ta‘minlaydi.¹ Ansoff diversifikatsiyani eng murakkab strategiya sifatida baholab, uni amalga oshirish uchun yuqori darajadagi boshqaruv salohiyati, moliyaviy resurslar va innovatsion yondashuv talab etilishini ta‘kidlaydi. Uning nazariyasida diversifikatsiya korxonaning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaraladi.

M. Porter (1985) diversifikatsiya masalasiga raqobat ustunligi nuqtayi nazaridan yondashadi. Unga ko‘ra, diversifikatsiya faqatgina o‘zaro bog‘liq faoliyat turlari asosida amalga oshirilgan taqdirda yuqori samaradorlik beradi. Porterning “qiymat zanjiri” konsepsiyasida diversifikatsiya jarayonida texnologik, ishlab chiqarish va marketing jihatidan sinergiya mavjud bo‘lishi muhimligi ta‘kidlanadi. Agar diversifikatsiya strategiyasi korxonaning asosiy kompetensiyalariga mos kelmasa, u kutilgan iqtisodiy natijani bermasligi mumkin. Ushbu yondashuv diversifikatsiya va samaradorlik o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi.² R. Rumelt (1982) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar esa diversifikatsiya darajasi va korxona moliyaviy natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zaro bog‘liq diversifikatsiyani amalga oshirgan korxonalar sof konglomerat diversifikatsiyani tanlagan korxonalarga nisbatan yuqori samaradorlikka erishgan. Rumelt diversifikatsiya strategiyasini tanlashda korxonaning mavjud resurslari va asosiy faoliyat yo‘nalishlarini hisobga olish zarurligini ta‘kidlaydi. Bu yondashuv diversifikatsiyaning samaradorlikka ta‘sirini baholashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlarda diversifikatsiya masalasi innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan.³ Grant, Chandler, Kotler kabi olimlar diversifikatsiya strategiyasi korxonalarda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishi, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilishini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, diversifikatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda korxonaning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish masalasi sanoatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy islohotlar bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar diversifikatsiyani sanoat

¹Ansoff, H.I. (1957). Strategies for Diversification. Harvard Business Review,

²Porter, Michael E. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance New York: Free Press

³Rumelt, R.P. (1982) Diversification Strategy and Profitability Strategic Management Journal

tarmoqlarini rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishning muhim omili sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlarida diversifikatsiya orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va bandlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirishda davlatning roli, sanoat siyosati va institutsional omillar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit, soliq va bojxona imtiyozlari, sanoat zonalarini rivojlantirish diversifikatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Bu omillar ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Diversifikatsiya siyosatining iqtisodiy mohiyati va zaruriyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitda korxonalar faoliyati global raqobat, bozor kon'yunkturasining tez o'zgarishi, texnologik yangilanishlarning jadalligi va iste'molchilar talabining differensiallashuvi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda korxonaning faqat bitta mahsulot yoki bitta bozor segmentiga tayanib faoliyat yuritishi uning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli diversifikatsiya siyosati korxona rivojlanishining muqobil emas, balki zaruriy strategik yo'nalishiga aylanmoqda. Diversifikatsiya siyosati korxonaning ishlab chiqarish, investitsiya va marketing faoliyatini kompleks kengaytirish orqali iqtisodiy risklarni taqsimlashga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda diversifikatsiya ko'pincha korxonaning bozor xavflarini kamaytirish, foyda manbalarini ko'paytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash vositasi sifatida talqin etiladi. Mazkur siyosatning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, korxona turli yo'nalishlarda faoliyat olib borish orqali bir segmentdagi pasayishni boshqa segmentdagi o'sish hisobiga qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq bunday natijaga erishish faqat diversifikatsiya qarorlarining iqtisodiy jihatdan puxta asoslanganligi bilan bog'liq.

Diversifikatsiya siyosatini shakllantirishda iqtisodiy mexanizmlar markaziy o'rin tutadi. Iqtisodiy mexanizmlar — bu korxona tomonidan strategik maqsadlarni amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan iqtisodiy usullar, moliyaviy instrumentlar, tashkiliy vositalar va rag'batlantirish tizimlari majmuidir. Mazkur mexanizmlar o'zaro bog'liq holda ishlaydi va diversifikatsiya siyosatining uzluksizligini ta'minlaydi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, faqat kompleks yondashuvgina yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Iqtisodiy mexanizmlar quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi⁴:

- moliyaviy mexanizmlar;
- investitsion mexanizmlar;
- ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish mexanizmlari;

⁴ Qodirov D.Sh. Sanoat korxonalarida diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari // O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2020.

- risklarni boshqarish mexanizmlari;
- tashkiliy-iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari;
- bozor va narx mexanizmlari.

Moliyaviy mexanizmlar diversifikatsiya siyosatining asosiy tayanch ustuni hisoblanadi. Chunki yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish sezilarli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Korxona diversifikatsiya siyosatini moliyalashtirishda quyidagi manbalardan foydalanadi⁵:

- ichki moliyaviy resurslar (sof foyda, amortizatsiya fondi);
- tashqi moliyalashtirish (bank kreditlari, lizing, obligatsiyalar);
- strategik investorlar va qo‘shma korxonalar;
- davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlovi.

Moliyaviy mexanizmlarning samarali ishlashi pul oqimlarining barqarorligini ta‘minlab, diversifikatsiya loyihalarining uzluksiz moliyalashtirilishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, moliyaviy mexanizmlar kapital tuzilmasini optimallashtirish va moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Diversifikatsiya siyosati investitsion qarorlar bilan chambarchas bog‘liq. Har bir diversifikatsiya loyihasi iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan puxta tahlil qilinishi lozim. Investitsion mexanizmlar ana shu tahlilni ta‘minlaydi. Ilmiy-amaliyotda investitsion loyihalar samaradorligi NPV, IRR, PI va Payback Period kabi ko‘rsatkichlar yordamida baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar diversifikatsiya siyosatining iqtisodiy asoslanganligini ta‘minlaydi va noto‘g‘ri investitsiya qarorlarining oldini oladi. Investitsion mexanizmlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- diversifikatsiya yo‘nalishlarini tanlash;
- investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash;
- investitsiya risklarini aniqlash va kamaytirish;
- investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish.

Diversifikatsiya jarayoni, odatda, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi bilan kechadi. Shu sababli xarajatlarni boshqarish mexanizmlari diversifikatsiya siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur mexanizmlar korxona resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlab, diversifikatsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Xarajatlarni boshqarish mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

- normativ xarajatlar tizimi;
- byudjetlashtirish va rejalashtirish;
- tannarxni tahlil qilish;
- moliyaviy nazorat va ichki audit.

⁵ Abdullayev A.X. Korxonalarda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – №3.

Diversifikatsiya siyosati risklarni kamaytirish vositasi bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos yangi risklarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois risklarni boshqarish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Risklarni samarali boshqarish korxonaning diversifikatsiya siyosatini barqaror va uzoq muddatli qiladi. Riskni boshqarish mexanizmlariga quyidagilar kiradi⁶:

- bozor risklarini tahlil qilish;
- moliyaviy risklarni sug‘urtalash;
- texnologik risklarni baholash;
- risklarni diversifikatsiya qilish.

“O‘zbekneftgaz” AJda mahsulot turlarining yillar kesimidagi o‘zgarishi va olingan daromad⁷

t/r	Yillar	Mahsulot turi nomi	Yillik daromad (mlrd so‘m)
1	2020	Tabiiy gaz, xom neft, gaz kondensati, LPG, gazni qayta ishlash mahsulotlari (5 tur)	51 200
2	2021	Tabiiy gaz, xom neft, LPG, gaz kondensati, oltingugurt, gaz-kimyo xomashyosi (6 tur)	64 800
3	2022	Tabiiy gaz, LPG, oltingugurt, gaz-kimyo mahsulotlari, polimer xomashyosi (6 tur)	78 500
4	2023	Tabiiy gaz, LPG, oltingugurt, polimer xomashyosi, gaz-kimyo mahsulotlari (6 tur)	92 300
5	2024	Tabiiy gaz, LPG, oltingugurt, gaz-kimyo mahsulotlari, qayta ishlangan yoqilg‘i komponentlari (7 tur)	105 000

2020–2024 yillar davomida “O‘zbekneftgaz” AJda ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiya qilish jarayoni izchil amalga oshirilganini kuzatish mumkin. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mazkur davrda korxonaning mahsulot nomenklaturasi kengayib, gaz-kimyo va qayta ishlash yo‘nalishlari hisobiga yangi mahsulot turlari joriy etilgan. Xususan, an’anaviy tabiiy gaz va xom neft bilan bir qatorda, oltingugurt, polimer xomashyosi va gaz-kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshgan. Mahsulot turlarining kengayishi korxonaning moliyaviy natijalarida ham o‘z aksini topgan. 2020 yilda 51,2 trln so‘mni tashkil etgan yillik daromad 2023 yilga kelib 92,3

⁶Karimov B.A. Diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining o‘rni // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – Toshkent, 2021

⁷ O‘zbekneftgaz AJ rasmiy sayti: <https://www.ung.uz>;

Yillik hisobotlar: <https://www.ung.uz/uz/pages/reports>;

openinfo.uz; <https://openinfo.uz>;

Energetika vazirligi: <https://minenergy.uz>;

Davlat statistika qo‘mitasi: <https://stat.uz>

Daromadlar kompaniyaning yillik hisobotlari va openinfo.uz dagi rasmiy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.

trln so'mga yetgan bo'lib, bu davrda daromad hajmi qariyb 1,8 baravar oshgan. 2024 yil uchun esa daromadning 105 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Ushbu o'sish sur'atlari diversifikatsiya strategiyasining samaradorligini yaqqol ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, gaz-kimyo va chuqur qayta ishlash mahsulotlariga o'tish "O'zbekneftgaz" AJ uchun yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkonini bergan. Bu esa korxonaning bozor barqarorligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Demak, diversifikatsiya strategiyasi neft-gaz tarmog'ida samaradorlikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda

III. TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur ilmiy maqolada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali korxonalar samaradorligini oshirish masalasini chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarning murakkabligini hisobga olgan holda, nazariy qarashlar va amaliy ma'lumotlarni uyg'unlashtirishga qaratildi. Bu esa diversifikatsiya strategiyasining samaradorlikka ta'sirini asosli va ishonchli tarzda baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda tizimli yondashuv usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish jarayoni korxona faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi va uning boshqa iqtisodiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Tizimli yondashuv diversifikatsiya strategiyasining ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy natijalar, boshqaruv tizimi va bozor faoliyati bilan uzviy aloqasini aniqlashga xizmat qildi. Natijada diversifikatsiya jarayoni alohida hodisa sifatida emas, balki korxona rivojlanishining integral elementi sifatida baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda tahlil va sintez usullaridan keng foydalanildi. Tahlil usuli orqali diversifikatsiya strategiyasining alohida elementlari — mahsulot assortimentining kengayishi, bozor segmentlarining ko'payishi, texnologik yangilanishlar va boshqaruv qarorlarining samaradorligi alohida-alohida o'rganildi. Sintez usuli yordamida esa ushbu elementlarning o'zaro bog'liqligi va umumiy iqtisodiy natijalarga ta'siri umumlashtirildi. Bu yondashuv diversifikatsiya orqali samaradorlikni oshirish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida solishtirma tahlil usuli muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu usul orqali diversifikatsiya strategiyasini joriy etgan korxonalar faoliyati diversifikatsiya qilmagan yoki cheklangan darajada amalga oshirgan korxonalar faoliyati bilan taqqoslandi. Solishtirma tahlil ishlab chiqarish hajmi, foyda, mehnat unumdorligi va rentabellik kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini aniqlashga xizmat qildi. Natijada diversifikatsiya strategiyasining korxona samaradorligiga real ta'siri aniqlab berildi. Diversifikatsiya siyosati natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ular quyidagilar:

- ishlab chiqarish hajmining o'sishi;
- sof foyda va rentabellikning ortishi;
- bozor ulushining kengayishi;
- moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi.

Iqtisodiy mexanizmlarning to'g'ri qo'llanilishi diversifikatsiya siyosatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Umuman olganda, korxonalarda diversifikatsiya siyosatini shakllantirishda iqtisodiy mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular strategik qarorlarni iqtisodiy jihatdan asoslab, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

V. XULOSA

Mazkur ilmiy maqolada korxonalarda diversifikatsiya siyosatini shakllantirishda iqtisodiy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida diversifikatsiya strategiyasining mohiyati, turlari va samaradorlikka ta'siri yetakchi iqtisodchi olimlar — I. Ansoff, M. Porter va R. Rumelt konsepsiyalari asosida yoritildi. Xususan, o'zaro bog'liq diversifikatsiya shakllarining sof konglomerat diversifikatsiyaga nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorlik berishi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu esa diversifikatsiya siyosatini tanlashda korxonaning mavjud resurslari, asosiy kompetensiyalari va bozor imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida diversifikatsiya siyosatini amalga oshirishda iqtisodiy mexanizmlarning — moliyaviy, investitsion, xarajatlarni boshqarish, risklarni boshqarish hamda tashkiliy-iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Mazkur mexanizmlarning kompleks va izchil qo'llanilishi diversifikatsiya loyihalarining iqtisodiy jihatdan asoslanganligini ta'minlab, korxonaning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. "O'zbekneftgaz" AJ faoliyati misolida olib borilgan amaliy tahlil natijalari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish mahsulot nomenklaturasining kengayishi, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushining ortishi va daromad hajmining barqaror o'sishiga olib kelishini yaqqol ko'rsatdi. 2020–2024 yillar davomida korxona daromadlarining sezilarli darajada oshishi diversifikatsiya strategiyasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, korxonalarda diversifikatsiya siyosatini shakllantirishda iqtisodiy mexanizmlarning ilmiy asoslangan va tizimli qo'llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy

rivojlanishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari kelgusida korxonalar diversifikatsiya strategiyasini takomillashtirish, investitsion qarorlarni optimallashtirish hamda sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B.A. Diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining o'rni // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – Toshkent, 2021. – №4.
2. Qodirov D.Sh. Sanoat korxonalarida diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari // O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2020.
3. Rumelt, R.P. (1974). Strategy, Structure, and Economic Performance. Boston: Harvard Business School Press.
4. Porter, M.E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.
5. Abdullayev A.X. Korxonalarda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – №3.
6. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY BANDLIKNING MEHNAT BOZORIDAGI O'RNI VA IJTIMOIIY XAVFLARI //Latin American journal of education. – 2025. – T. 5. – №. 6. – C. 124-132.
7. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY ISH O'RINLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI //IMRAS. – 2025. – T. 8. – №. 11. – C. 75-81.
8. Nematillayevich L. I. et al. STATE PROGRAMS AND PROSPECTIVE STRATEGY FOR PROMOTING EMPLOYMENT THROUGH THE REDUCTION OF INFORMAL JOBS IN THE LABOR MARKET //INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. – 2025. – T. 4. – №. 38. – C. 373-377.
9. Nematillayevich L. I. et al. INTERNATIONAL LEGAL NORMS FOR PROMOTING EMPLOYMENT THROUGH THE REDUCTION OF INFORMAL JOBS IN THE LABOR MARKET //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 4. – №. 37. – C. 144-146.
10. Nematillayevich L. I. et al. MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH O'RINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKA KO'YILISHNING MAKROHISOBIOBODIY NORMALARI. – 2025.
11. Nematillayevich L. I. ISHLAB CHIQARISHNI GORIZONTAL DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLARI //MATERIALLARI TO'PLAMI. – 2025. – C. 73.
12. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY IQTISODIYOTDAN RASMIY IQTISODIYOTGA O'TISH: QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR. – 2025.
13. Nematillayevich L. I. et al. TRANSITION FROM THE INFORMAL ECONOMY TO THE FORMAL ECONOMY: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES. – 2025.

14. Ne'matillayevich L. I. et al. MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH O'RINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKKA KO'MAKLASHISH YO'LLARI //AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 21-26.
15. Izzatulla L. CHARACTERISTICS OF HIGHER EDUCATION SERVICE PROVIDING ORGANIZATIONS //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071. – 2023. – T. 12. – №. 01. – C. 21-28.
16. Izzatulla L. PROVIDING EFFECTIVE ACTIVITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET, DEVELOPING A DEVELOPMENT STRATEGY //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 01. – C. 9-14.
17. Levakov I. THE ROLE AND PLACE OF SERVICE SECTORS IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION //СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2023. – С. 130-132.
18. Nematillaevich L. I. Main characteristics, theoretical issues of effective management strategies in higher education //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – C. 97-101.
19. Nematillaevich L. I. Conceptual Foundations Of Effective Management In Higher Education Organizations //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – C. 90-96.
20. Nematillaevich L. I. IMPROVING THE MECHANISMS FOR DEVELOPING EFFECTIVE MANAGEMENT STRATEGIES IN HIGHER EDUCATION //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 08. – C. 1-8.